

**O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**Kasb ta'limi fakulteti 5140901-Kasb ta'limi (iqtisodiyot) bakalavr
ta'lim yo'nalishi talabasi Tog'ayeva Lolagulning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari»
mavzusini interaktiv metodlari aso-sida o'qitish metodikasi**

Rahbar:



A.D.Ravshanov

Maslahatchi:



Z.L.Botirov

Ish bajaruvchi:



L.Tog'ayeva

«Himoyaga ruxsat etildi»

«KT va P» kafedrası

mudiri

dots. Z.L.Botirov

« 21 » 06 2014 y.

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»

«Kasb ta'limi» fakulteti

dekani

dots. Q.S.Jumanazarov

« 24 » 06 2014 y.

QARSHI-2014 y.

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Kash ta'limi fakulteti
5140901 - Kash ta'limi (iqtisodiyot) ta'lim yo'nalishi

«TASDIQLAYMAN»

K.T. Sa P. kaf.mudiri
(imzo, f.i.sh)

«10» 12 2013 y

Bitiruv malakaviy ishi uchun

TOPSHIRIQ

Talaba To'gayeva Solomun Noraliyevna ga

1. Malakaviy ish mavzusi "Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari" mavzusini interaktiv metodlari asosida o'qitish metodikasi yaratish

institutning № 587/4 buyrug'i bilan 06.12.2013 yil da tasdiqlangan.

2. Malakaviy ishini topshirish muddati 2014-yil 10-iyun

3. Malakaviy ish uchun ma'lumot Dehqonobod tumani "Inqish Chavandaz" fermer xo'jaligining 2011-2013 yillaridagi ma'lumotlaridan foydalaniladi

4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati) Bitiruv malakaviy ishinin g asosiy mazmunini yorituvchi jadal ma'lumotlari tahlil asosida keltiriladi. Shuningdek ta'lim texnologiyasiga oid chizmalar shayd ko'rinishida va target ma materiallarda aks ettirilgan

5. Chizmalar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar)

Bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha ta-
garmali materiallar ro'yxati va to'plami

6. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar shga mutaxassislik
kafedrasidan dotsent A. A. Bitiruv masla-
hatchi etib tayinlangan

7. Malakaviy ishini bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

Haftalar soni	Malakaviy ish bo'limlari	Malakaviy ishning hajmi beti	Umumiy hajmga nisbatan %	Bajarilganligi to'g'risidagi belgi	Izoh
I	Turistik Fan va mas'xurining tavsifi	8	8,3	bajarildi	a'lo
II	O'qitish metodi-kasining umu-miy masalalari	31	32,3	bajarildi	a'lo
III	Ijtimoiy-iqtiso-diy masalalar majmuasi	30	31,2	bajarildi	yaxshi
IV	Naxsariy dare-tish metodika-sining umumiy masalalari	12	12,5	bajarildi	a'lo
V	Amaliy mashgu-latni o'tkarish metodikasining umumiy masala-lari	8	8,3	bajarildi	a'lo
VI	Qulasa va taklif-lar foydalanil-gan adabiyot-lar ro'yxati	7	7,3	bajarildi	a'lo
	Jami:	96	100	bajarildi	

Malakaviy ish rahbari A. D. Ravshanov

Topshiriq olingan kun 9.12.2013-yil

Talaba To'g'ayeva Dalagul

KIRISH

Mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida, ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga korxonalarning iqtisodiy samaradorligini har bir korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash strategik vazifalardan biri ekanligini e'tirof etish lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ularning raqobatbardoshligini oshirishga to'siq bo'layotgan mavjud muammolar, nomutanositliklarni aniqlash va ularni hal etishning majmuaviy chora-tadbirlarini chuqur tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Zotan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida shakllanayotgan raqobat muhiti sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot etishtirishda talab va taklif muvozanatiga erishish, ichki va tashqi bozorda samarali faoliyat yuritishga keng imkoniyatlar yaratuvchi mexanizmlarni takomillashtirish va tatbiq etish yo'llarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maxsulot raqobatbardoshligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Korxonalar qanchalik iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni taminlab bersalar o'z navbatida davlat byudjetiga tushadigan tushum xajmini ko'payishi aholi daromadlarini oshishi provardida ijtimoiy soha talim, sog'liqni saqlash, mudofaa ijtimoiy obektlarni qurish singari ijtimoiy yunaltirilgan soxalar va xizmatlarni o'sishini taminlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulotlarni ishlab chiqarishda qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish. Ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish muhim xisoblanadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda ilmiy ishlab chiqarishni takomillashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish ni miqdor va sifat jihatdan ko'paytirish, mahsulot tannarxini pasaytirib, mahsulot ishlab chiqarish orqali foydani ko'paytirishdan iboratdir. Kuzlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishimiz kerak: korxona moliyaviy natijalarni korxona xo'jalik yuritishni asosi sifatida ahamiyatini ilmiy va amaliy tadqiq qilish; korxonada foyda shakllanishiga tasir qiluvchi omillarni o'rganish va taxlil qilish; korxona moliyaviy natijalarni korxona boshqaruvi bilan bog'liq xolda tadqiq qilish; korxonada ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxini yanada pasaytirish.

Bitiruv malakaviy ishda «Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari» mavzusini interaktiv metodlari asosida o'qitish metodikasi ishlab chiqilib, o'qitishning nazariy, amaliy va ishlab chiqarish ta'limi metodlari hamda masalaning texnik izlanishlar natijalari yoritildi.

1. FAN VA MAVZUNING TAVSIFI

1.1. Tanlangan mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, «Hech kimga sir emaski, ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori ekani, tayyorlanayotgan mahsulotlarning material va energiyani ko'p talab qilishi va avvalo iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining texnologik jihatdan qoloqligi bugungi kunda raqobatdoshlikni oshirishda jiddiy to'siq bo'lmoqda»

Shu boisdan ham, iqtisodiyotni modernizasiyalash va ishlab chiqarishni diversifikasiyalash sharoitida korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ularning raqobatbardoshligini oshirishga to'siq bo'layotgan mavjud muammolar, nomutanosibliklarni aniqlash va ularni hal etishning majmuaviy chora-tadbirlarini chuqur tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Zotan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida shakllanayotgan raqobat muhiti sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot etishtirishda talab va taklif muvozanatiga erishish, ichki va tashqi bozorda samarali faoliyat yuritishga keng imkoniyatlar yaratuvchi mexanizmlarni takomillash-tirish va tatbiq etish yo'llarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Chunki, qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maxsulot raqobatbardoshligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Mamlakat miqyosida korxonalar qanchalik iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni taminlab bersalar o'z navbatida davlat byudjetiga tushadigan tushum xajmini ko'payishi aholi daramodlarini oshishi provardida ijtimoiy soha talim, sog'liqni saqlash, mudofaa ijtimoiy obektlarni qurish singari ijtimoiy yunaltilgan soxalar va xizmatlarni o'sishini taminlaydi.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida mahsulotlarni ishlab chiqarishda qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish. Ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatbardosh-ligini oshirish muhim va dolzab vazifalardan sanaladi.

1.2. Mavzuni o'qitishda tanlangan interaktiv metodlarning ahamiyati

Ta'lim samaradorligiga erishish ko'p jihatdan o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishga bog'liqdir. O'quv jarayonini loyihalashtirishda unga

yaxlit tizim, ta'lim texnologiyasi elementlariga aniq mezonlar sifatida qarash bilan bir qatorda ularni aniq mezonlar asosida tanlash muhim o'rin tutadi.

Ta'lim metodlarini tanlashda asosan ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlari va o'qituvchining mahoratlari inobatga olinadi. Ta'limning maqsadi-tahsil oluvchilarda muayyan fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim berish jarayonida ta'lim maqsadini amalga oshirishda turli metodlarni qo'llash lozim bo'ladi. Ba'zi metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi. Masalan: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona va h.k. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchiniing mahorati tahsil olganlarning o'zlashtirish darajasini va o'qitish metodlarini ta'sir darajasini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. Masalan, tahsil oluvchilarning o'quv materiallarini idrok qilish paytida ular qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalansa, esda olib qolingani bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarni qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosini tashkil etadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga binoan ta'lim metodlarini tanlashda yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslangan holda o'quv jarayonlarini to'liq loyihalashtirish orqali tashkil etilsa va berilgan o'quv materiallari mazmuni tahsil oluvchilar ongiga tez-oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Demak, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni amalga oshirilishi har bir o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarining sifati bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy-intellektual salohiyatini oshiradi, natijada tahsil oluvchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Bu o'z navbatida bitiruv malakaviy ishida tanlangan o'qitish metodining ahamiyatga molik ekanligini ko'rsatadi.

2. TA'LIM TIZIMIDA MODUL TEXNOLOGIYALARINI KENG JORIY ETISHNING UMUMIY MASALALARI

2.1 Maxsus fanlarni o'qitishda modul texnologiyasi va loyixalar metodini qo'llash

Hozirgi paytda oliy va ta'lim muassasalari va kasb-xunar kollejlari maxsus fanlar o'qitish metodikasi, o'qitish jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quv uchrashuv ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga ega vazorlar ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan kasb-xunar kollejlari tizimini takomillashtirish xamda ularning o'quv tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish maqsadida xorijiy mamlakatlarning etuk mutaxassisleri va malakali pedagoglari ishtirokida seminarlar, ilmiy- amaliy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Kasb-xunar kollejlari o'quvchilarning tanlagan mutaxassisliklarini chuqurroq o'rgatish ushuni muxandis pedagoglardan o'qitayotgan maxsus fanini yaxshi bilishi zarur. Maxsus fan o'qituvchilari xar bir yangi mavzuni yoritish jarayonida o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi zarur. Zarur paytida o'qituvchi o'quvchilarni o'zini bilimini oddiy tilda oson xabar bilan osona qilingishi uchun juda katta mas'uliyat talab qilinadi. O'qituvchi zarur tugagandan keyin o'quvchilarni baholash jarayonida olgan bilim va ko'nikmalariga qarab ko'zlangan maqsadiga erishganligini bilib oladi. Buning uchun ega o'qituvchi o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilishi talab qilinadi. Maxsus fanlarning o'qitish usullari talablariga quyidagilar kiradi.

1. O'quvchilarning osonligi oshirish.
2. O'quvchilarni shaxsiy xususiyatlarini xisobga olish.
3. O'quvchilar faolligini oshirish.
4. Bilim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishini puxtaligini nazorat qilish
5. Didaktik deduktsiyadan foydalanish.
6. O'qitishning tizimligini va izchililigini oshirish.
7. Namunalardan foydalanish.
8. O'qitishning tushunarli bo'lishini tashkilashtirish.
9. O'qitishning tarbiyalovchi xarakteridan foydalanish.

10. Ilmiylik

11. Ko'rgazmalilik

12. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligini tushuntira olish talab qilinadi.

O'qituvchi yuqoridagi talablarni qo'llagandagina o'quvchilar bilimi yaxshiroq chuqurroq bo'ladi va mavzuni e'lab qoladi, xamda unga bo'lgan qiziqishi ortadi.

2.2. O'qitishning modul texnologiyasi

Bu texnologiya o'quvchining ijodiy fikrlashini uzluksiz shakllantirib boruvchi va qobiliyatini rivojlantiruvchi texnologiyadir. Uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy imkoniyat (potensial) ni rivojlantirishdir. O'qitishning modul texnologiyasi bajarilganda shaxs ijodkorlik ob'ekti darajasidan ijodkor subektga o'tkaziladi, o'quv material o'zlashtirish fanidan biron ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanadi. Modul texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunda talaba bilimlarni o'zining xususiy intellektual mahsulotini (kompyuter programmalarini, ixtirolar, tadqiqotlar va b.) o'qituvchi rahbarligida yaratish jarayonida oladi.

O'quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirish uchun quyidagilar zarur bo'ladi:

- o'qitish, bilim-ta'lim berish jarayonining butunligini, uning bundan avval berilgan ta'lim bilan uzviy ketma-ketligini ta'minlash. Bunda vertikal bo'yicha umumlashtirilgan kurslardan foydalaniladi.

- *talabalarining ijodiy masalalarni echish bo'yicha izlash, bilish faoliyatini barcha yoki, hech bo'lmasa, ko'pchilik auditoriya darslarida o'quv jarayoniga kiritish;*

- o'quv bo'linmalarida va umuman ta'lim muassasida uzluksiz ijodiy o'qitish muhitini yaratish;

- ta'limga nisbatan yangi mentalitetni shakllantirish: ta'lim bilimlarni nafaqat oladi va nushasini ko'paytiradi, balki, eng asosiysi, yangi bilim-ma'lumotlarni yaratadi;

- tizimli fikrlashni, nostandart g'oyalarni yaratish va original echimlarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi metod sifatida tizimli va programma-algoritmik yondoshishdan foydalanish;

- texnika-texnologiyaga oid tizimli fikrlashni shakllantirish va yaratuvchanlik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonlarini, shuningdek tegishli mativasion sohani aniq maqsadga yo'naltirgan holda boshqarish;

- shaxsning tizimli fikrlashi, intellektual faolligi va kommunikativlik (o'zaro fikr almashinuvchanlik, bog'lanuvchanlik) sifatlarini rivojlantirishda «ijodiy guruhlarining» tashkiliy shaklidan ko'p funksiyali didaktik vosita sifatida foydalanish;

- malaka tavsifining biror qismini ta'minlovchi umumlashtirilgan (gorizontal bo'yicha integrasiya qilingan) fanlar hisobiga, shuningdek nazariy o'qitishni malakaviy amaliyot bilan uzviy birlashtirish yo'li bilan kasbiy qiziqishni rivojlantirish.

Talabalar olgan quyidagi qobiliyatlarni ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish samarasini baholash mezonlari bo'ladi:

- tadqiqot ob'ektini fikran yoki amalda tarkibiy qismlarga ajratib, tizimli tahlil qilish (mazkur holatda ob'ektni tashkil etgan alohida elementlarning mohiyati, ularning bog'lanishlari va o'zaro ta'sirlari o'rganiladi);
- axborot hajmi etarli bo'lmagani holda noaniq muammoli vaziyatdan masalalarni belgilab olish va to'g'ri izohlash;
- hal etiladigan muammo bo'yicha ilmiy-texnik axborotni aniq maqsad yo'nalishida izlash;
- nostandart original g'oyalarni yaratish va gipotezalarni oldinga surish;
- mumkin bo'lgan barcha variantlarni har tomonlama ob'ektiv baholash asosida ular ichidan rasional (maqbul) echimni aniq maqsadli izlash;
- tizimli tadqiq natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni bir ma'noli ifoda-lash;
- tadqiqot ob'ektlarining rivojlanishini bashorat etish;
- muammoni echishda yuzaga keladigan (ma'muriy, texnikaviy, fizik va b.) ziddiyat-larni nostandart topish, shakllantirish va hal etish;
- xususiy fikrlashdagi inersiyani engib, xilma-xil fikrlash.

O'qitish modul texnologiyada – bu nafaqat o'quv, balki mahsulli faoliyatdir, bu nafaqat bilimlarni olish, balki yangilarini yaratish hamdir. Mazkur texnologiya loyihalar metodini qo'llanib o'qitish texnologiyasiga yaqin. Modul texnologiyada

loyiha o'qitish metodi sifatida bo'lishi bilan birga nafaqat o'quv, balki hayotiy ma'noga ham ega.

O'qitishning modul texnologiyasi ayniqsa kadrlarni integrallashtirilgan kurslar asosida kasbiy tayorlashda samarali bo'ladi. Bundan kadrlarni ijtimoiy-gumanitar, matematik va tabiiy fanlar bo'yicha tayyorlashda foydalanish mumkin.

2.3. Loyihalar metodini qo'llanib o'qitish texnologiyasi

Loyihalar metodi bugun rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi sifatida qo'llanilmoqda. Uning maqsadi talabaning ijtimoiy-madaniy muhitda loyihalash faoliyatiga faol kirishishi uchun o'zining mavjud bilimlarini faollashtirishiga va yangilarini (ba'zan, mustaqil ta'lim yo'li bilan) olishiga yo'naltirilgan [7;8]. Bu texnologiyadan ko'pincha, o'qitishning boshqa texnologiyalarga (masalan, o'qitishning modul texnologiyasiga q.) qo'shimcha ravishda foydalaniladi. Loyiha, o'qitish metodi sifatida ko'pchilik hollarda fanlararo xarakterga ega. Shuning uchun uni integrallashtirilgan kurslarni o'rganishda qo'llanish ko'proq maqsadga muvofiq keladi. Loyihalar individual va guruhli bo'lishi mumkin.

Talabalar va o'qituvchining loyiha ustida ko'rsatadigan faoliyatida ma'lum struktura (ketma-ketlik va mantiqiy tuzilish) bo'ladi.

1 bosqich – loyihani tayyorlash: loyiha mavzusi va maqsadi aniqlanadi; talabalar o'qituvchi bilan birgalikda loyihani muhokama qiladi va konsultasiya (loyihani bajarishga oid yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida beriladigan maslahat, yordam, o'tqaziladigan suhbat va mashg'ulot) oladi; o'qituvchi loyihani bajarish istiqbollari ochib beradi, maqsadlarini tushuntiradi va maslahat beradi.

2 bosqich – rejalash: axborot manbalarini, axborot to'plash va tahlil qilish usullarini, hisobot shakllarini, natija va jarayonni baholash mezonlarini aniqlash, vazifalarni taqsimlash (loyihani guruh bilan bajarishda) talabalar ish rejasini ishlab chiqadi va vazifalarni aniq ifodalab ta'riflaydi, o'qituvchi esa reja va vazifalarga tuzatishlar kiritadi, o'z fikrini taklif etadi, natijani oldindan bashorat qilishga yordam beradi.

3 bosqich – tadqiqot; axborot to'plash, qo'yilgan masalalarni echish; talabalar tadqi-qot o'tkazib, oraliq va so'ngi vazifalarni hal etadi, o'qituvchi esa bu ishlarni kuzatib boradi, zarur bo'lganda yordam va maslahat beradi. Axborot manbai sifatida intervyu, so'-roq, kuzatish, tajriba, ma'lumotnoma adabiyotlar bilan ishlash va b. dan foydalaniladi.

4 bosqich – tadqiqot natijalarini umumlashtirish: axborotni tahlil qilish, xulosalar va takliflarning mantiqiy tuzilish shaklini belgilash va ifodalash; o'qituvchi maslahat beradi.

5 bosqich – hisobot (natijalarni topshirish): og'zaki ma'ruza, referat, kurs ishi yoki loyihasi, stendga qo'yiladigan material, yozma hisobot, kitob, risola va h.k.

Talabalar hisobot beradi, doklad qiladi, o'qituvchi esa talabalar bilan bab-baravar va ekspertlar bilan birgalikda eshitadi, savollar beradi va to'g'rilaydi.

6 bosqich – natijalar va jarayonni (loyihaning tugallanganligini) baholash: talabalar loyiha qatnashchilarining (ba'zan, o'zining ham) reytingini baholash va aniqlashda qatnashadi; o'qituvchi talabalar va ekspertning ishini baholaydi, bunda loyiha qatnashchilarining fikrini nazarga oladi, keyingi tadqiqotlarni bajarish uchun dalillar keltiradi.


Informasion texnologiyalar davrida telekommunikasion loyihalar eng istiqbolli bo'ladi. Bunday loyihalar: tadqiqot shaklida; ijodiy; informasion; amaliyotga qaratilgan; tabiiy fanlar; o'quv o'yinlari va b. bo'lishi mumkin. Telekommunikasion loyihalarni amalda qo'llanish shakli telekonferensiyalar, qatnashchilarning «kompyuter-kompyuter» yordamida telekommunikasion sinxron aloqa orqali yozishmalari va h.k. dan iborat. Loyihalar yoki telekommunikasion loyihalar metodini qo'llanib o'qitish texnologiyasi:

- kadrlarni amaliyotga va shaxsiy imkoniyatlariga qaratib tayyorlashni kuchaytiradi;

- talabalarning o'zidagi shaxsiy imkoniyatlaridan amalda qanday foydalanayotganligini va sardorlik sifatlarini namoyon etayotganligini bilishga imkon beradi.

2.4. Bilim olishning intellektual resurslari

Intellektual o'qitish tizimi ta'lim oluvchilarni faollashtirish va muvofiqlashtirish, topshiriqlarni taqsimlash, kuzatish, yordam ko'rsatish hamda ular bilan muloqotni individuallashtirish hamda differensiallashtirishga qaratilgan axborot muhitini yaratish, multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali bilim olishga qiziqishni orttirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv materiallarini o'zlashtirishning samaradorligini oshirish, real holatlarda namoyish qilinishi murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini yaratish, kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda o'quv trenajeri funksiyasini bajarish imkoniyatlarini yaratadigan ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi.



2.1-rasm. Bilim olishning intellektual resurslari

Intellektual ta'lim resurslari quyidagi shakllarda ishlab chiqiladi:

Matnli materiallar. Nazariy mashg'ulotlarni tashkil etishning matnli qismi eng salmoqli o'rinni egallaydi. Odatda, o'quv dasturiga muvofiq asosiy o'quv materiallari matnli shaklda yaratilib, shundan so'ng ularga qo'shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O'quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an'anaviy leksiyalarning bir qator kamchiliklar (zarur o'rinlarni ko'chirib olish, qayd qilish, ma'ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi)ni bartaraf etilishini ta'minlaydi.

Audio materiallar. Bu turdagi audiomateriallar kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanib tarqatiladi.

Video materiallar sinxron hamda asinxron tartibda uzatiladi. Video materiallarini sinxron tartibda, to'g'ridan-to'g'ri uzatilishi pedagog va ta'lim oluvchining bevosita muloqotini ta'minlaydi, an'anaviy ma'ruzalarga xos barcha ijobiy jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi, pedagog va ta'lim oluvchilar bir-birini real vaqtda ko'rib va eshitib turishini ta'minlaydi.

Animasion ma'ruzalar Ta'lim oluvchilarga interaktiv tuzilishga ega bo'lgan o'rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali etkaziladi. Animasion ma'ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalanib shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim oluvchi o'zining psixofiziologik xususiyatidan kelib chiqib, animasion ma'ruzadagi traektoriyasi, o'zlashtirish sur'ati va o'rganish usulini tanlaydi. Amaliy mashg'ulotlar kompyuter texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini mujassamlashtiruvchi trenajerlar, virtual reallik asosida o'qitish vositalari, ekspert o'rgatuvchi tizimlarga asoslanadi.

Elektron ma'lumotnoma. Bunga asosan elektron maslahat beruvchi ma'lumotnomalar kiradi.. Bunday maslahatlar o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzularga duch kelinganda; amaliy mashg'ulotlarni bajarishda kutilmagan savollarga javob topishda; yangi materiallarni taqdim etishda; mutaxassislar bilan muloqot qilishda amalga oshiriladi.

Bilimlar banki – o'z tarkibiga axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, kompyuter multimediali o'rgatuvchi tizimlar, audio va video o'quv-axborot materiallari, lug'at va ma'lumotnomalarni elektron versiyalarini mujassamlashtiradi. Bunday elektron resurslar majmuasi bir qator afzalliklarga ega: elektron resurslardagi ma'lumotlarni tez qidirib topish, ularni sistemali joylashuvi, materiallarni ko'rgazmaliligi, keltirilgan materiallar doirasini kengligi va qo'shimcha ma'lumotlarga bo'lgan murojaat mavjudligi, materiallarni ixchamligi, materiallarni etkazish usulini osonligi va tezligini yuqoriligi kabilar.

Elektron trenajerlar. Bu nazariyadan amaliyotga o'tganda to'g'ri javobga yo'l yo'riqlar ko'rsatadigan ta'lim sharoitini ishlab chiqarish vaziyatiga yaqinlashtirish imkoniyatini beradigan qurilma.

O'zlashtirishni baholash vositalari va materiallar. Ta'lim oluvchilar tayyorgarlik sifatining kompyuter texnologiyalari asosida aniqlash imkoniyatini yaratadi. Bularga turli murakkablik darajasi ga ega bo'lgan testlar kiradi.

2.5. O'qitishda didaktik materiallar

Didaktik materiallarga talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o'yinlar, krassovordlar kabi materiallar kiradi. Shuningdek o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarkatma materiallar, kartochkalar, savolnomalar, yuriknomalar, amaliy ishni tashkil etish buyicha texnologik xaritalar va h.k. kiradi.

Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

- Muammolarni hal qilishga yunaltirish;
- Tadqiqotlar olib borishga yunaltirish;
- Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish;
- Tajribalar va mashqlar o'tkazishga muljallash;
- Yangiliklarni izlash va topishga yo'naltirish.

Mustaqil o'rganishni ta'minlovchi va amaliyotlarni o'tkazishga yo'naltirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bularga yo'naltiruvchi matnlar, loyihalar va modullarni misol qilish mumkin. Bu o'quv materiallari talabalarni mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi savol va topshiriqlar tizimini qamrab olishi kerak.

Ijodiy topshiriqlar tarkibiga ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish, turli didaktik o'yinlar kiradi. Agar ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar yangi o'quv holatlariga tatbiq qilinsa, ijodiy mustaqil ish dilillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo'llash bilan ajralib turadi

Muommali vaziyatli va ijodiy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi:

- topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog'liq muammolarga qaratilishi kerak;
- o'quv topshirig'idagi muammoni hal etishda talabalar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko'zda tutadi;
- topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi muhim bog'liqlik ko'rsatilishi kerak;
- topshiriqlar echimini aniqlash va talabalar ongida hodisalar yoki jarayonlar o'rtasida bog'liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy tushunchalardan, u hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim;
- topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar talabaga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bilan o'zaro tahlil qilinadi;
- topshiriqni bajarishda talaba tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan va o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

2.6. Fanni o'qitish texnologiyasi

O'qituvchi tomonidan fanning shaxsga yunaltirilgan va rivojlantiruvchi ta'limga asoslangan o'qitish texnologiyasi bo'yicha metodik qo'llanma ishlab chiqiladi. Fanni o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish, o'tkazish, bilim va ko'nikmalarni baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalari ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

Quyidagi sxemalarda metodik qo'llanmani ishlab chiqishda fanni o'qitish texnologiyasining umumiy namunaviy tuzilmasi keltirilgan.

1. Umumiy o'quv maqsadlari. O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi.

Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim aha-miyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarning mazmuni yo'naltiruvchi maqsad-lardan kelib chiqib belgilanadi. Umumiy o'quv maqsadlari yo'naltiruvchi maqsadlarni aniqlashtiradi. Umumiy o'quv maqsadlari ta'lim oluvchi muayyan fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka haqida umumiy tasavvurni beradi.

2. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar. O'qituvchi tomonidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

3. Mustaqil ish. Mustaqil ishlar talabaning umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek talabalarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki talaba o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa talaba bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

Mustaqil ishlarning turlari, shakllarini tanlashda «oddiydan-murakkabga» hamda «umumiydan-xususiyyga», «mavhumdan-aniqlikka» tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir talaba shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

4. Mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari. Nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlar jamoaviy kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib boriladi. Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Har bir talaba

o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va inobatga olishi o'qitish sifatini oshirish hamda har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar o'rganilishi kerak bo'lganda, shuningdek talabalarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi.

5. Didaktik vositalar va materiallar. O'quv-didaktik materiallarga o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quv-didaktik materiallar sifatida qullaniladigan matnli - vizual vositalar, amaliy mashg'ulotlarda kurs materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar hamda elektron ta'lim resurslari ruyhati beriladi.

6. Joriy, oraliq baholash. Talabalar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida talabalar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. O'qituvchi tomonidan joriy va oraliq baxolash metodlari va mezonlari ishlab chiqiladi.

Joriy baholash muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tez-kor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi. Oraliq baholash fan asosiy bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin talabalarining bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari baholanadi.

7.Yakuniy baholash. Yakuniy baholash talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash fanni o'qitish jarayonining yakunida o'tkaziladi.

3. IJTIMOIIY - IQTISODIY MASALALAR MAJMUASI

3.1. Maxsulotlar tannarxining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz xalq xo'jaligining eng muhim tarmog'i, uning serqirra faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun ma'lum miqdordar moddiy, pul hamda mehnat sarf-xarajatlari amalga oshiriladi. Ularning mamlakat miqyosidagi miqdori jami ijtimoiy xarajatlar deb ataladi. Ijtimoiy xarajatlar ijtimoiy mahsulot qiymati bilan tengdir. Ularning tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan xarajatlar. Ular o'tgan davr xarajatlari bo'lib, S harfi bilan belgilanadi.
2. Jonli mehnat xarajatlari. Ular o'zi uchun yangi qiymatni yaratadi, V harfi bilan belgilanadi.
3. Buyumlashgan va jonli mehnat uyg'unlashishi natijasida jamiyat uchun qo'shimcha qiymat yaratiladi. U m harfi bilan belgilangan.

Ijtimoiy xarajatlar, ya'ni yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatining umumiy ko'rinishi quyidagicha: $C + V + m$


Mamlakatning jami ijtimoiy xarajatlari–davlat hamda tarmoqlar, korxona va tashkilotlar miqyosidagi barcha xarajatlarning yig'indisidir.

Tarmoqning ijtimoiy xarajatlari–individual korxonalarining, tashkilotlarning xarajatlari yig'indisidir. Shunday tarmoqlardan eng muhimi, qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jalik korxonalari turli xildagi talablarni qondirish maqsadida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlarni bajarish uchun moddiy, pul va mehnat xarajatlarini amalga oshiradilar. Yuqorida qayd etganimizdek, korxona miqyosidagi moddiy va buyumlashgan xarajatlar S harfi bilan, mehnat xarajatlari, ish haqi shaklida bo'lib, V harfi bilan belgilanadi. Korxonalar xarajatlarining umumiy ko'rinishi quyidagicha: . Bu umumiy xarajat hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari turli xildagi mahsulotlarni etishtirish, xizmat va ishlarni bajarish uchun moddiy va buyumlashgan quyidagi xarajatlarni amalga oshiradilar: urug'lik, ko'chat, mineral, mahalliy o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallar, ozuqa va em-xashaklar, asosiy vositalarning eskirish qiymati, ishchi xizmatchilarning mehnatlariga to'langan haqlar, soliqlar, kreditlar uchun to'lovlar, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kam qiymatli, tez eskiruvchan materiallar va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqda amalga oshiriladigan xarajatlarning yangi tartibi 1995 yil 1 yanvardan boshlab joriy etilgan. U «Mahsulot ishlab chiqarish (ish, xizmat) va sotish tannarxlariga qo'shiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom»da (Toshkent, 1999 y.) o'z ifojasini topgan. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan xarajatlar o'zgaruvchan hamda doimiy xarajatlardan tashkil topadi. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi, ish miqdorining o'zgarishi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi bilan bog'liq emas. Mahsulot hajmi ko'payishi yoki kamayishi bilan doimiy xarajatlar qiymati o'zgarmaydi. Masalan, er uchun ayrim asosiy vositalarga to'lanadigan ijara haqi, ayrim asosiy vositalarning eskirish summasi (amortizasiya summasi) to'lovlari va boshqalar

doimiy xarajatlar tarkibiga kiradi. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorining ko'payishi o'zgaruvchan xarajatlar ko'proq sarflanishini taqozo etadi. Ularga urug'liklar, ko'chatlar, mineral va mahalliy o'g'itlar, ozuqalar, em-xashak, mehnatga to'lanadigan ish haqi, elektroenergiya xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.



3.1-rasm. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning harakati

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni joriy etish, sermahsul chorva hayvonlarini yaratish, shakllantirish hamda ilg'or tajribalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq.

Qishloq xo'jaligida moddiy mablag' va mehnat sarflarini amalga oshirishda ularning o'rindoshligini hamda har bir sarflanayotgan qo'shimcha xarajatni tejash, qolaversa, ortiqcha sarf-xarajatlar qilmaslikni talab etadi. Xo'jaliklarda amalga oshirilayotgan xarajatlar ma'lum maqsadni hal etishga qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda ular quyidagicha guruhlashtirilgan:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:
 - a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
 - b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari (ish haqi);
 - v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar
2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlari kiritiladigan xarajatlar:
 - a) mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
 - b) korxonani boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);
 - v) boshqa operasion xarajatlar va zararlar.
3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyati bo'yicha hisobga olinadigan xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar, daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.


Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan xarajatlarni imkoniyat doirasida tejashga harakat qilish zarur. Buning uchun fan, texnika yutuqlarini, yangi texnologiyalarni, ilg'or tajribalarni imkoniyat doirasida ishlab chiqarishga tatbiq etish lozim. Xarajatlarning tejalishi boshqa ishlar bajarilishini hamda olinadigan foyda summasi oshishini ta'minlaydi. Natijada xo'jalikning rentabellik darajasi ortadi. Foyda summasining oshishi xo'jalikni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun ham bu masalaga respublikamiz hukumati, xo'jaliklarning barcha xodimlari doimo katta e'tibor bermoqdalar.

Qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qilinayotgan barcha xarajatlar iqtisodiy mazmunga, maqsadga, hisobot ob'ektiga hamda shakllanish manbalariga ko'ra, quyidagi elementlarga va moddalarga guruhlashtirilgan (1-chizma):

- mahsulot etishtirish, ishlarni, xizmatlarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar;
- davr xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- favqulodda qilinadigan xarajatlar(foyda, zararlar).


Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, bir xil xarajatlar xarajat elementlarini, bir nechta xarajat elementlari xarajat moddalarini tashkil etadi. Demak, xarajat moddalari xarajat elementlariga nisbatan kengroqdir.



3.2-rasm. Qishloq xo'jaligidagi xarajatlarning iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlashtirilishi

Amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlashtirish natijasida mehnat xarajatlari uchun berilgan ish xaqini va uning tarkibini, sarflangan moddiy (material) xarajat, turli maqsadlarga sarflangan pul xarajatlari (ob'ektlari bo'yicha) summasini aniqlab, ularni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.


Sarflanayotgan xarajatlarni tahlil etish jarayonida ularning qanchasi mahsulot etishtirishga oid texnologik jarayonlar bo'yicha sarflanganligiga ham alohida e'tibor beriladi. Bundan maqsad – fan-texnika, texnologiya yangiliklarini ishlab chiqarishning u yoki bu jarayoniga tatbiq etish natijasida xarajatlarni tejash imkoniyatini aniqlashdir. Shuning uchun ham xarajatlarni mahsulot etishtirish texnologik jarayonlari bo'yicha ham turkumlashtirish mumkin



3.3-rasm. Qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish texnologik jarayonlari bo'yicha turkumlanishi

Xarajatlarning bunday tartibda turkumlashtirilishi ularning o'simlikchilik mahsulotlari etishtirish davrlari bo'yicha qilinadigan miqdorini, qiymatini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shunga asoslangan holda ularning samarali amalga oshirishlashini ta'minlash mablag'lar bilan ta'minlanish masalalari ham hal etilishini taqozo qiladi.

Qishloq xo'jaligida xarajatlarni sarflashdan yana bir maqsad—etishtirilayotgan bir birlikdagi mahsulot, bajarilayotgan ishlar, xizmatlar uchun o'rtacha qancha xarajat qilinganligini ham aniqlashdir, ya'ni ularning tannarxlarini bilishdir. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi darajasi ularning foydali yoki zararliligi bo'yicha aniqlanadi. Shuning uchun xarajatlar har bir tannarx ob'ekti bo'yicha to'g'ri olib borilishini ta'minlash lozim. Buning uchun sarflanayotgan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish davrlariga qarab qo'shilishi bo'yicha turkumlashtiriladi.



3.4-rasm. Xarajatlarning mahsulot etishtirish muddatlari bo'yicha turkumlashtirilishi

Qishloq xo'jaligida xarajat mahsulot etishtirish jarayonida bevosita hamda bilvosita sarflanadigan xarajatlarga ham turkumlashtiriladi. Bevosita (to'g'ri) xarajatlar mahsulotlarni etishtirishda bevosita qatnashadi va ular mahsulot hajmiga, sifatiga to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishda (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishda) bevosita qatnashadigan xarajatlarga quyidagilar kiritilmoqda:

1. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar, ular iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizasiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli:

- ♦ ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlarni ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar;
- ♦ normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim-bosh va arzonbaholi boshqa ashyolarning eskirishi;
- ♦ sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida montaj qilindigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ♦ tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan, faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish harakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish,

asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tovarlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan quyi bo'g'inlarga, ya'ni sexga va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli:

- ◆ tabiiy xomashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan erni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun yog'och, taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanish huquqlarining amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari;
- ◆ texnologik maqsadlarga energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transporti tomonidan bajariladigan, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;
- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya (xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyaga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi);
- ◆ ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qotish me'yorlari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;
- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar);
- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moddiy resurslarni etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi;
- ◆ mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o'rash-joylash materiallari qiymati. Ular amaldagi sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi;
- ◆ «moddiy xarajatlar» elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'imlardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalariga va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;
- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;
- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensasiya tusidagi to'lovlar;
- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;
- kun, smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;
- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar.
- aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan, qaytishgacha to'lanadigan, yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;
- qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;
- doimiy ravishda er osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;
- mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffisientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffisientlar bilan belgilangan to'lovlar;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to'lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda);

- ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash;
- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yili) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yili) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensasiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;
- majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;
- donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;
- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalarda qatnashganlik uchun) mehnat haqi to'lash;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi;
- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ijtimoiy sug'urta ajratmalariga quyidagilar kiradi:

- ♦ qonun xujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tushadigan majburiy ajratmalar;
- ♦ nodavlat pensiya jamg'arlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar;
- ♦ asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish). lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar, qonun xujjatlarida amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar,

xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi, foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish me'yori besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

4. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalarini – bandlerda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari.
2. Ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari.
3. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.
4. Zarurat bo'lganda, ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ro'yxati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasi takshil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ekti mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar me'yori har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag'lari summasi ushbu ob'ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak, agar haqiqiy xarajatlar oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi.
5. Yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarini ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Yuqoridagilardan tashqari qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

1. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar.
2. Tabiatni mahofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, shu jumladan, ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan me'yorlar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to'lovlar.

3. Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari.
4. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni saqlash tadbirlari.
5. Tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga beriladigan oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensasiyasi summasi).
6. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi).
7. Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.
8. Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.
9. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha me'yorlar doirasida va ulardan ortiqcha xarajalar.
10. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari.
11. Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.
12. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra, bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.
13. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.
14. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari.
15. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.
16. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajalar.

1. Qishloq xo'jaligida davr xarajatlari ham amalga oshiriladi. Ular mahsulotlarni bevosita ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmay, balki xo'jalikning sohalari bo'yicha tashkil etish va ularni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan iboratdir.

Bu xarajalar ham maqsad vazifalariga ko'ra, quyidagicha turkumlashtiriladi:

- etishtirilgan mahsulotlarni sotish, xizmatlarni ko'rsatish uchun qilinadigan quyidagi xarajalar: mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajalar;
- ma'muriy xarajalar, ularga tarmoqni, korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajalar, jumladan, boshqaruv tizimlarining faoliyati, boshqaruv sohasidagi vositalar bilan bog'liq bo'lgan xarajalar;

- boshqa operasion xarajatlar, jumladan, kadrlar tayyorlash, loyihalarni tuzish, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar.

2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar. Ularga barcha turdagi kreditlar bo'yicha, mol-mulkning ijara haqi to'lovlari hamda qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotish, tarqatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi.

3. Favqulodda yuz beradigan hodisa, voqealarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar. Ularga korxonalarining odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operasiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar kiradi. Masalan, er qimirlashi, tinchlikka xavf soluvchi harakatlarni ma'lum miqdorda qoplash xarajati. Chunki ular asosan davlat va mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi.

3.2. Maxsulot tannarxini xisoblash usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar miqyosida umumiy qiymat ko'rsatkichlari bilan birgalikda o'rtacha xarajatlar, ya'ni tannarx ko'rsatkichi ham faoliyat ko'rsatishi taqozo etiladi. Tannarx bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning yordamida qishloq xo'jaligida etishtirilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning bir birligi xo'jaliklar uchun qancha so'mga tushganligi aniqlanadi. Ularning darajasi qiymatni ifodalovchi baholar darajasi bilan taqqoslanishi natijasida olinadigan foyda yoki ko'riladigan zararlar darajasi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich xo'jaliklarning ichki boshqaruvchilari uchun juda muhimdir.

Hozirgi davrda mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tannarx deganda bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan moddiy, mehnat, pul xarajatlari nazarda tutiladi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun barcha bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi shu xarajatlar yordamida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga taqsimlanadi. Qishloq xo'jaligida 1 s. mahsulotning narxi; 1 etalon gektarining; 1 tonna-km/ning; 1 kv/soat elektroenergiyaning tannarxi aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$T_H = \frac{\sum I_x}{\sum M_M (I_M, X_M)};$$

Bunda: T_n – mahsulot, ish, xizmat tannarxi, so'mda;

$\sum I_x$ – ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi, so'mda;

$(M_m (I_m, X_m))$ – yalpi etishtirilgan mahsulot, jami bajarilgan ish, xizmatlar miqdori sen., tonnada, etalon gektarda...

Yetishtirilayotgan mahsulotlarning:


- ishlab chiqarish tannarxi;
- to'liq tannarxi, tijoriat tannarxi aniqlanadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash usuli yuqorida keltirilgan. Uning to'liq yoki tijorat tannarxi jami xarajatlarni (jumladan, sotish xarajatlari bilan)

etishtirilgan yalpi mahsulot miqdoriga yoki sotiladigan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) ning haqiqiy hamda reja tannarxlari aniqlanadi. Haqiqiy tannarx darajasi yil yakunidagi ma'lumotlar yordamida hisoblanadi. Reja tannarxi esa normativlar, erishilgan ma'lumotlar asosida aniqlanib, «Biznes reja»da aks ettiriladi.

Qishloq xo'jaligida barcha xarajatlarni amalga oshirish natijasida turli xildagi asosiy, qo'shimcha hamda yordamchi mahsulotlar olinadi. Jumladan, paxtachilikda paxta xomashyosi asosiy mahsulot hisoblansa, g'o'zapoyasi qo'shimcha mahsulot sanaladi. Donchilikda don asosiy, somoni (poyasi) qo'shimcha mahsulotdir. Qoramolchilikda go'sht, sut asosiy, buzoq qo'shimcha, go'ng esa yordamchi mahsulot hisoblanadi. Lekin tarmoqdagi barcha xarajatlar asosiy mahsulotni etishtirishga qaratilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda 3.2.1-rasmda aks ettirilgan ob'ektlar tannarx ob'ektlari hisoblanadi.



3.5-rasm. Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxi ob'ektlari


Mahsulot xarajatlari va tannarxini o'rganish boshqaruv hisobining muhim bo'limlaridan biridir.

Mehnat va moddiy ko'rinishidagi to'g'ri xarajatlar bevosita aniq bir mahsulot yoki xizmat turiga oid bo'lishi, umumishlabchiqarish xarajatlari mahsulot turiga qarab faqat maxsus usullar yordamida taqsimlanishi mumkin.

Xarajatlarni taqsimlash - qilingan xarajatlarning aniq bir xarajat ob'ektiga borish jarayonidir.

Xarajatlar ob'ekti – tashkiliy bo'linma, shartnoma yoki boshqa hisob birligi bo'lib, u bo'yicha xarajatlar haqidagi ma'lumotlar yig'iladi va jarayonlar, mahsulot, shu kapitalni qo'yish loyihasi va hokazolar qiymati o'lchanadi.

Mahsulotlar tannarxlarini hisoblashda ta'kidlangan marjinal-kosting va abzorbshn-kosting uslublari asosida turli xildagi usullar qo'llanishi mumkin. Ushbu usullar 3-chizmada ifodalangan.



3.6-rasm. Mahsulot tannarxini hisoblash usullari

Ushbu usullarning ijobiy tomonlarini boshqaruv hisobi tizimida mahsulotlar tannarxlarini hisoblash jarayonida tatbiq etish zarur.

Xarajatlarni taqsimlashning muhim kategoriyasi bo'lib, xarajatlar markazi hisoblanishini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz.

Xarajatlar markazi – tashkiliy birlik yoki faoliyat sohali bo'lib, u erda aktivlar xaridi uchun qilingan chiqimlar va xarajatlar haqida axborot to'plash maqsadga muvofiqdir.

Barcha xarajat guruhlari boshqaruv echimlarini qabul qilishga mo'ljallangan. Boshqaruv hisobida xarajatlar ikki asosiy ob'ekt guruhlari bo'linmalar va mahsulotlar bo'yicha taqsimlanishi kerak. Ushbu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlar javobgarlik markazlari bo'yicha to'planadi;
- xarajatlar muayyan brigadada etishtirayotgan aniq mahsulot tannarxiga taqsimlanadi.

Tayyor mahsulot tannarxini hisoblashda quyidagi usullarga murojaat qilishadi: hamma xarajatlarni hisobga olgan holda xarajatlarni kalkulyasiya qilish yoki ularning bir qismi bo'lgan o'zgaruvchan xarajatlarnigina hisobga olib, kalkulyasiya qilish mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ayrim turdagi mahsulotlar, o'simchilikda don, paxta, sholi va h.k.lar, chorvachilikda sut, o'stirilgan vazn, jun, tuxum hamda tirik vazn tannarxi aniqlanadi.

Shuning uchun qishloq xo'jaligida mahsulotlar tannarxini hisoblash, kalkulyasiya qilish uchun xarajatlar qabul qilingan elementlar va moddalarga muvofiq ekinlar turi yoki guruh, chorvachilikda esa chorva mollari turi va guruhlar bo'yicha hisoblab boriladi.

Mahsulot tannarxini aniqlash uchun xarajatlarning ayrim guruhlar va turlar bo'yicha alohida-alohida hisoblab borilishiga tannarxni kalkulyasiyalash, deyiladi.

Xarajatlar hisobga olinadigan ob'ektlar kalkulyasiya ob'ekti, deb aytiladi. O'simlikchilikda kalkulyasiya ob'ekti sifatida ayrim ekin turlari, masalan, paxta, kuzgi yoki bahorgi bug'doy, sholi va h.k., chorvachilikda sut qoramol podasi, o'stiriladigan pada, cho'chqalar va h.k. bo'lishi mumkin. Ayrim mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi unchalik katta bo'lmasa, kalkulyasiya ob'ekti sifatida ekinlar guruhi, masalan, boshqoli don ekinlari, sabzavotlar, poliz va shu kabi ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotdan foydalanish xususiyati bilan bir-biriga yaqin ekinlarning bir guruhi kalkulyasiya ob'ekti sifatida qabul qilinadi va ular bo'yicha xarajatlar rejalashtiriladi hamda hisoblanadi. Mahsulotlar tannarxini kalkulyasiya qilishda jami xarajatlar to'g'ri – bevosita xarajatlarga va egri – bilvosita xarajatlarga bo'linadi. Bundan tashqari, xarajatlar mahsulotni yaratishdagi o'rniga ko'ra, asosiy xarajatlarga va ustama xarajatlarga bo'linadi. Mahsulotni etishtirish texnologiyasi bilan bevosita – to'g'ri bog'liq bo'lgan va mahsulot tannarxiga to'ppa-to'g'ri olib boriladigan xarajatlar asosiy – to'g'ri xarajat, deb ataladi. Bunga urug'lik, em-xashak bevosita xodimlarning mehnat haqi kiradi. Mahsulot etishtirish texnologiyasi bilan bevosita bog'langan, lekin bir necha ekin turiga yoki guruhiga taalluqli bo'lgan xarajatlar asosiy kompleks xarajat hisoblanib, kalkulyasiya ob'ektlariga ma'lum ko'rsatkichlarga asosan taqsimlanadi.

Masalan, sug'orish bilan bog'liq bo'lgan umumiy xarajatlar ekin turlariga yoki ekinlar guruhiga, ularda bajarilgan sug'orish ishlari gektarlarga, traktorlarning umumiy xarajatlari bajarilgan traktor ishlari (jismoniy gektar, etalon gektar, mashina soatlari) ga mutanosib taqsimlanadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan bilvosita – egri xarajatlar, mahsulot tannarxiga, ya'ni ekinlar, chorva mollari turi va guruhlariga, shu xarajatlar xususiyatini ifoda etadigan biror ko'rsatkichga mutanosib taqsimlanadi.

Mahsulotlarni sotish, korxonani boshqarish va boshqa operasion xarajatlarni o'zida mujassamlashtirgan davr xarajatlari mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda hisobidan qoplanadi.

Lekin biror mahsulot etishtirishni va uni sotish bilan bog'liq natijalarni aniqlash, unga iqtisodiy jihatdan baho berish uchun shu ekin yoki mahsulotning foydaliligini aniqlash zarur bo'lgan, davr xarajatlarining u yoki mahsulotdagi salmog'ini aniqlashga to'g'ri kelganda bu salmoq mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlaridagi salmoqqa asosan taqsimlanadi.

Qishloq xo'jaligining o'simchilik va chorvachilik tarmoqlarida alohida kalkulyasiya ob'ekti hisoblangan ekin turlari va chorva guruhlaridan biologik xususiyatlariga ko'ra, bir emas, bir necha mahsulot olinishi mumkin. Ularni ishlab chiqarish maqsadi va xo'jalikda tutgan o'rni va ahamiyatiga ko'ra:

- asosiy mahsulotlarga;
- yondosh mahsulotlarga;
- qo'shimcha mahsulot yoki chiqindilarga bo'lish mumkin.

Asosiy mahsulot – ishlab chiqarish maqsadini ifoda qiladigan mahsulot va aynan shu mahsulotni etishtirish uchun ishlab chiqarish, hatto, korxona tashkil etilgan bo'ladi.

Yondosh mahsulot – asosiy mahsulotdan keyingi o'rinda turadigan ma'lum tovarlik ahamiyatga yoki korxonada biror maqsadda foydalanish imkoniga ega bo'lgan mahsulot.

Qo'shimcha mahsulot yoki chiqindilar – asosiy va yondosh mahsulotlar bilan birga shakllanadigan, korxona uchun unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, ammo biror maqsadda foydalaniladigan, shunga ko'ra qiymatga ega bo'lgan mahsulotlardir.

Masalan, katta hajmda boshqoli ekinlarni parvarish etuvchi korxonada shu boshqoli ekinlardan pirovardida – don, don chiqindilari, somon yoki poxol etishtiriladi. Bunda don (to'la saralab, talab darajasiga keltirilishi) – asosiy mahsulot, don chiqindilari yondosh mahsulot, somon yoki poxol qo'shimcha mahsulot yoki chiqindi hisoblanadi.

Shu kabi sut qoramolchiligida sigirlardan sut, buzoq hamda go'ng olinadi. Bunda sut asosiy mahsulot, buzoq yondosh mahsulot, go'ng esa chiqindi hisoblanadi.

Ekin turlari va chorva mollaridan olingan yondosh va qo'shimcha mahsulotlardan korxonada biror maqsadda foydalanilgan taqdirda kalkulyasiya ob'ektida jamlangan xarajatlarning bir qismi shu mahsulotlarga taalluqli bo'lishi kerak.

Ekin turini va chorva guruhini ifoda etuvchi kalkulyasiya ob'ektida jamlangan hamma xarajatlarni asosiy, yondosh va chiqindilar o'rtasida taqsimlash hamda shu mahsulotlar tannarxini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Xarajatlarni ma'lum texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan koeffisientlarga binoan taqsimlash. Bunda mahsulotlardan birining bir birligi bir-biriga, qolganlarining birligi shu birlikka nisbatan koeffisientda ifolanadi. Masalan, boshqoli ekinlar donining bir birligini 1,0 koeffisientga, don chiqindilarini ulardan to'la ahamiyatli donlar miqdori 30% bo'lganda – 0,3, somon yoki poxolni 0,08 koeffisientga teng deb olsak, don chiqindilari – somon yoki poxolni shu koeffisientlarga ko'ra, to'la ahamiyatli shartli don miqdoriga aylantirish mumkin.

2. Xarajatlarni asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlarning bozor baholarida aniqlangan qiymatlariga mutanosib taqsimlash orqali. Bozor bahosi bo'lmagan mahsulotlar qiymatini aniqlashda, shu mahsulotlarni oziqa birligi miqdori aniqlanib, bir oziqa birligi sifatida bir kilogramm sulii miqdorida qabul qilingani uchun shu sulii bahosida baholangan oziqa birligi qiymatidan foydalanish mumkin.

3. Xarajatlarning u yoki bu turdagi mahsulotga sarf bo'lishini ekspert yo'li bilan baholash va shunga ko'ra, xarajatlarning ayrim mahsulotdagi salmog'ini belgilash.

Masalan, sut qoramolchiligida qo'shimcha yoki chiqindi hisoblangan go'ng dehqonchilikda qimmatli mahalliy o'g'it rolini o'tganligi uchun uni chorva binolarida tayyorlash va doimiy saqlaydigan joyiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar sut qoramolchiligining umumiy xarajatlaridan chegirib tashlanadi. Bundan keyingi qolgan xarajatlar sut va buzoq uchun taqsim qilinadi. Ekspert baholariga ko'ra, xarajatlarning 90%i sutga va 10%i buzoqqa to'g'ri kelishi aniqlangan bo'lib, sut va buzoq tannarxini kalkulyasiya qilishda shu nisbatlardan foydalanish tavsiya etilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'simlikchilik tarmoqlarida tannarxni aniqlash ob'ekti ekin turlari yoki guruhlaridan olinadigan mahsulotlar hisoblanadi – asosiy, yondosh va qo'shimcha yoki chiqindi mahsulotlari.

Chorvachilikda ham kalkulyasiya ob'ekti hisoblangan chorva mollari turi va guruhlaridan bir necha turdagi mahsulot olinganligi uchun shu mahsulot turlari tannarxini aniqlashda xarajatlar asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlar o'rtasida yuqorida keltirilgan usullardan birini qo'llash orqali taqsimlanadi.

Chorvachilikning hamma sohalarida o'stirilgan vazn tannarxidan tirik vazn tannarxini aniqlash hamda ishlab chiqarish jarayoniga iqtisodiy baho berish, ishlab chiqarish darajasi, uning yo'nalishi, samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash uchun foydalaniladi. Shuningdek, korxonaning xo'jalik-moliyaviy faoliyati foyda-ziyonni aniqlash, xo'jalik hisobini tashkil qilish uchun ham tirik vazn tannarxidan foydalaniladi.

Chorva mollarining ma'lum turlari bo'yicha tirik vazn tannarxi o'stirilgan vazn, olingan buzoq qiymati, shu guruhdagi mollarning yil boshiga bo'lgan balans qiymati, yil davomida o'stirish va semirtirish uchun kirim qilingan mollar qiymati yig'indisini shu guruhdagi mollar vazni yig'indisiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$T_{T.B} = \frac{IB \cdot K + VBK + OBK + K \cdot K}{IB \cdot B + VB + OBB + KB - H \cdot B};$$

Bu erda: TT.V – tirik vazn tannarxi;

IB.K – yil boshiga bo'lgan shu guruhdagi mollar qiymati;

IB.V – shu mollar vazni;

O'VK – o'stirilgan vazn qiymati;

UV – o'stirilgan vazn miqdori;

OBK – olingan buzoq qiymati;

OBV – olingan buzoq vazni;

K.K – kirim qilingan mollar qiymati;

KV – kirim qilingan mollar vazni;

N.V – nobud bo'lgan mollar vazni.

1 sentner tirik vazn tannarxiga ko'ra, sotilayotgan mol va parrandalar tannarxi hamda asosiy podaga o'tkaziladigan va yil oxiriga qoladigan mollar tannarxlari yoki xarajatlari belgilanadi.

Korxonada ishlab chiqarish samarali bo'lishiga erishish, boshqarishni soddalashtirish maqsadida xizmat ko'rsatish sohalar yoki tarmoqlari tashkil etilib, ular ishlab chiqarish bo'linmalari maqomida bo'lib, alohida kalkulyasiya ob'ekti hisoblanadi. Ular faoliyati bilan bog'liq umumiy xarajatlar alohida kompleks modda sifatida hisoblab boriladi va yil oxirida xizmat ko'rsatilgan sohalarida bajargan ishlarga mutanosib holda taqsim qilinadi. Qishloq xo'jalik korxonalarida quyidagi xizmat ko'rsatish bo'linmalari tashkil etilishi mumkin:

- mashina-traktor parki;
- ta'mir ustaxonasi;
- yuk avtomobil parki;
- jonli tortuv kuchi;
- elektr xo'jaligi;
- mashina-meliorativ otryad va h.k.

Mashina-traktor parklarining bajargan ishlari asosan etalon- gektarlarda, avtotransport ishlari mashina-soatlarda yoki t.-kilometrda, jonli tortuv kuchi bilan bajarilgan ishlar ot kunlarida, elektr xo'jaligi esa kilovat-soatlarida o'lchanadi.

Bu sohalar ishlari tannarxi umumiy qoidalarga asosan xarajatlarni elementlar va moddalar bo'yicha hisoblash orqali aniqlanadi. Xizmat ko'rsatuvchi sohalar xarajatlari to'la- to'kis o'zlari xizmat ko'rsatgan tarmoqlarda bajarilgan ishlarga taqsim qilinadi va yil oxirida qoldiq qolmaydi.

Shuning uchun xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar ishini to'g'ri tashkil qilish bu sohadagi xarajatlarni kamaytirish, bajarilgan ishlar tannarxini arzonlashtirish, pirovard natijada mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, ular samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llaridan biridir.

3.3 Fermer xo'jaligida mahsulotlar bo'yicha rentabellik darajasining taxlili

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish uchun realizasiya darajasini chuqur tahlil qilib , uning rejada belgilangandek bajarilishiga erishilishi lozim. Chunki xar bir ishlab chiqarish tarmog'ida etishtirilgan mahsulotning sifati tannarxi qancha yaxshi va arzon bo'lsa realizasiya natijasi shunchalik yaxshilanadi va fermer xo'jalikning rentabellik darajasi oshib foyda ko'payadi.

Mahsulotlarning realizasiya qilish hisobiga foyda olish rejasining muvaffaqiyatli bajarilishi o'z navbatida xo'jalikning moliyaviy xolati barqaror bo'lishini taminlaydi. Demak ishlab chiqarishning moliyaviy ishlariga, natijalariga shu jumladan mahsulotlarning rentabellik darajasining bajarilishiga realizasiya qilingan mahsulot tannarxi va mahsulotlarning sifati bevosita tasir etadi. Shuning uchun xam realizasiya qilingan mahsulotlarning rentabellik darajasi asosan xo'jalikning yaxshi yoki yomon yuritilishiga, mahsulot tannarxining qanday xosil bo'lishiga va ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining foyda yoki zarar ko'rishiga bog'liqdir.

Rentabellik fermer xo'jaligining moliyaviy faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir. Rentabellik ishlab chiqarishdagi barcha o'zgarishlarni (texnika bilan qancha qurollanganligi, tarmoqlarning ixtisoslashtirilganligi, dehqonchilik ekinlarining hosildorligi, chorva mollirining mahsuldorligi, ularning tannarxi, asosiy va muomila fondlaridan foydalanish va boshqa sifat ko'rsatkichlarni) aks ettiradi.

Fermer xo'jaligi tarmoqlarining rentabellik darajasini tahlil qilish , ishlab chiqarishning fermer xo'jaligining moliyaviy faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir moliyaviy natijalari yaxshilashda muxim ahamiyatga ega. Chunki rentabellik fermer xo'jaligining moliyaviy faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu ko'rsatkich fermer xo'jaligi iqtisodini taxlil qilish, xarid narxlarini takomillashtirish, daromad solig'ini, va boshqa xatiyohlarni xisoblab chiqish zarur.

Fermer xo'jaliklarning rentabellik darajasi ularning iqtisodiy jixatdan mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Xo'jalik rentabelli bo'lsa mahsulot sotishdan kelgan

pul xisobiga xarajatlar qoplanadi xamda foyda oladi. Binabarin xar bir ishlab chiqarishda rentabellik aniq xisoblanishi va xar tomonlama taxlil qilinishi zarur. Fermer xo'jaligini rentabelligini aniqlash yalpi va sof daromad kabi darajalar bilan bog'langan. Yalpi daromad –bu olingan yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish xarajatlari chivarilgandan so'ng qolgan qismidir.

Yalpi daromadning o'sishi fermer xo'jaliklari iqtisodini mustahkamlashning eng muxim omillaridan biridir. Yalpi daromad bilan bir qatorda sof daromadni xam taxlil qilish kerak.

Sof daromad (foyda) ni xisoblash fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy tarmoqlar bo'yicha rentabelligi ixtisoslashtirish, kapital mablag'lar samaradorligi , kengaytirilgan tokror ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash kabi boshqa ko'pgina muxim masalalarni xal qilish uchun g'oyat zarurdir. Shuningdek tarmoqlar va ayrim mahsulotlar bo'yicha sof daromadni aniqlash fermer xo'jaliklarida tejash rejimini amalga oshirishga yordam beradi xamda xamda jamg'armalarni ko'paytirish va kengaytirilgan tokror ishlab chiqarish suratlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Foyda ko'rsatkichi xo'jalik tomonidan uning mablag'laridan foydalanishni to'la va xar tomonlama aks ettiradi. Fermer xo'jaliklari o'zlari etishtiradigan mahsulotlarni o'zlari sotib foyda oladilar. Binobarin ana shu maxsulotlarning realizasiyasi fermer xo'jaligi uchun foyda manbaidir.

Fermer xo'jaliklarning tarmoqlaridan olinadigan foydaning oshishi mahsulot sifatini yaxshilanishiga, tannarxning pasayishiga , ishlab chiqarish xajmining kengayishiga bog'liqdir.

Xo'jaliklarning moliyaviy natijalari samaradorligini yanada yaxshilash uchun xo'jalik ayniqsa ayrim maxsulot turlarini realizasiya qilishning rentabelligini to'g'ri aniqlash kerak. Ayrim mahsulot turlarini realizasiya qilishning rentabellaik ko'rsatkichlari xar qaysi mahsulot turini etishtirish xarajatlarining samaradorligini ko'rsatadi, davlatning fermer xo'jaliklaridan sotib olinadigan maxsulotlariga to'g'ri narx qo'yish va ishlab chiqarishning kelgusida rivojlanishi uchun aniq choralar belgilash imkonini beradi.

Demak shunday ekan fermer xo'jaligida maxsulot turlari bo'yicha rentabellik darajasini ko'radigan bo'lsak quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

3.2- jadval

“Ergash Chavondoz” fermer xo'jaligida maxsulot turlari bo'yicha rentabellik ko'rsatkichi

№	Ko'rsatkichlar	Ulchov birligi	Yillar			2013yil 2011yilga nisb. O'z - garishi(+;-)
			2011	2012	2013	
1	Don ekin maydoni	ga	30	20	50	+20
2	Don xosildorligi	s/ga	4,0	8,0	5,84	+1,84
3	Yalpi xosil	s	12,0	16,0	29,2	+17,2
4	Dondan kelgan daromad	Ming. sum	24518,8	65173,7	52391,2	27872,4
5	Донга қилинган харажат	Ming. sum	24148,8	61277,7	48800,8	24652
6	Дондан олинган соф фойда	Ming. sum	370,0	3896,0	3590,4	3220.4
7	Рентабеллик даражаси	%	1,5	6.35	7,36	4,9 marta oshgan

Jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki don ekin maydoni 2011 yilda 30 gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 20 gektarni tashkil etgan, 2013yilda 50 gektarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2013yil 2011 yilga nisbatan 20 gektarga kupaygan. Don xosildorligi 2011 yilda 4,0 s/ga, 2012 yilda 8,0 s/ga, 2013 yilda esa 5,84s/gani tashkil etgan Dondan olingan yalpi xosil esa 2011yilda 12 sentnarni tashkil etgan bo'lsa, 2012yilda esa 16 sentnarni tashkil etgan 2013yilda esa 29,2 sentnarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2011y il 2013 yilga nisbatan 17,2 sentrga kupaygan. Ko'payishiga asosiy sabab fermer xo'jaligida don ekin maydoni ko'payishi xisobiga yalpi xosil ko'paygan.

Dondan kelgan daromad 2011 yilda 24518,8 ming sumni tashkil etgan bo'lsa , 2012 yilda esa 65173,7 ming sumni tashkil etgan, 2013 yilda esa 52391,22 ming sumni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2013 yil 2011 yilga nisbatan 27872,4 ming sumga oshgan. Don ishlab chiqarish uchun qilingan xarajat 2011 yilda 24148,8 ming sumni tashkil etgan bo'lsa , 2012 yilda esa 61277 ming sumni tashkil etgan, 2013 yilda esa 48800,8ming sumni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2013 yil 2011 yilga nisbatan 24652 ming sumga oshgan. Dondan olingan sof foyda esa 2011 yilda 370 ming sumni tashkil etgan bo'lsa , 2012 yilda esa 3896ming sumni tashkil etgan, 2013 yilda esa 3590,4 ming sumni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2013 yil 2011 yilga nisbatan 3220,4 ming sumga oshgan. Fermer xo'jaligida don bo'yicha rentabellik darajasi 2011 yilda 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa , 2012 yilda esa 6,35 foizni tashkil etgan, 2013 yilda esa 7,36 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2013 yil 2011 yilga nisbatan 4,9 marta oshgan. Fermer xo'jaligida ekin turlari bo'yicha rentabellik darajasining oshishiga asosiy sabab maxsulot tannarxini kamayib borishidir.

Mahsulot tannarxini pasaytirish – ishlab chiqarishning rentabelligini oshirishda asosiy omildir. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa, fermer xo'jaliklarning rentabellik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Tannarxni kamaytirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

Ishlab chiqarishni jadallashtirish va ixtisoslashtirish, erlardan oqilona foydalanish va dexqonchilik ekinlari xosildorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizasilashtirish va avtomatlashtirish, texnikadan samarali

foydalanish, mexnatni ilmiy asasda tashkil etish moddiy manfaatdorlikni oshirish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslik.

Demak shunday fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini taxlil qiladigan bo'lsak quyidagi jadvalda keltirilgan.

3.3- jadval

“Jobborova Tozagul” fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar			2009yil 2007yilga nisb. O'z - garishi(+;-)
			2007	2008	2009	
1	Maxsulot sotishdan tushgun tushum	Ming so'm	23768.4	26383.5	89445.2	+65676.8
2	Sotilgan mahsulot tannarxi	Ming so'm	17150	18616	67784	+50634
3	Foyda (+) Zarar (-)	Ming so'm	+6618.4	+7767.5	+21664.2	15045.8
4	Rentabellik darajasi	%	39	41	32	0.18 marta kamaygan

Jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki maxsulot sotishdan tushgan tushum 2007 yilda 23768.4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda 26383.5 ming so'mni tashkil etgan, 2009 yilda bu ko'rsatkich 89445.2 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2009 yil 2007 yilga nisbatan 65676.8 ming so'mga oshgan, sotilgan maxsulotlar tannarxi 2007 yilda 17150 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda 18616 ming so'mni tashkil etgan, 2009 yilda bu ko'rsatkich 67748 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2009 yil 2007 yilga nisbatan 50634 so'mga oshgan. Fermer xo'jaligida foyda esa 2007 yilda 6618.4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda 7767.5 ming so'mni tashkil etgan, 2009 yilda bu ko'rsatkich 21664.2 so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2009 yil 2007 yilga nisbatan 15045.8 ming so'mga ko'paygan. Fermer xo'jaligida rentabellik darajasi 2007 yilda 39 foizni tashkil etgan, 2008 yilda esa 41 foizni tashkil etgan, 2009 yilda bu ko'rsatkich 32 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2009 yil 2007 yilga nisbatan 0.18 martaga kamaygan

4. NAZARIY DARS O'TISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

4.1. Nazariy darslarni modul tizimi asosida tashkil etish

Kasbga o'rgatishning modul tizimi mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar ta'limning alohida birlik-modullarini izchil holda ketma-ket o'zlashtiradilar.

Modul algoritmi asosida quriladi va quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: aniq maqsad, nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, uslubiy ko'rsatma, yo'l-yo'riqlar, nazorat, o'zlashtirilgan bilim va malakani baholash.

Modul birliklari mehnat faoliyati asosida ishlab chiqiladi va kasbga oid o'quv elementlaridan tashkil topadi. U bir necha o'n va hatto bir necha yuz birliklaridan iborat bo'lishi mumkin. Ularning soni u yoki bu kasb mehnati mazmuni bilan belgilanadi.

Ta'limda modul tizimini qo'llash eski modul birligi o'rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo'llash imkonini beradi. Bunda katta hajmdagi darslik materiallarini o'zlashtirishga hojat qolmaydi, ya'ni ta'lim jarayonida ma'lumotnoma xarakteridagi materiallardan foydalaniladi.

Modul tizimi asosida ta'lim berishning afzalligi shundan iboratki, bunda e'tibor ko'proq ta'sir oluvchiga, uning mustaqil ishlashi va mashqiga hamda o'z-o'zini nazorat qilishiga qaratiladi.

Modul tizimi asosida o'qitishning davomiyligi ta'lim oluvchining tayyorgarligi va kasbiy malakani qay darajada egallash istagiga bog'liq. O'qitishni ta'limning istagan modelidan keyin to'xtatish mumkin. Shunday qilib, ta'lim berishning modul tizimi kasbiy ta'lim texnologiyasiga katta o'zgarishlar olib keladi.

Didaktik jarayonni loyihalashtirishni algoritmik asosda tashkil etish, ya'ni ta'lim mazmunini o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan intellektual operatsiyalarni bajarish o'quv faoliyatining asosini tashkil etadi. Bu yo'nalishda ta'lim jarayonining modul dasturi, modul dars asosida ta'lim mazmunining o'quv faoliyatini elementlariga ajratish va u bilan bog'liq bir qismlarining maqsad-vazifalarini belgilash o'quv faoliyati samaradorligini oshiradi. O'quv faoliyatining samaradorligi, o'quvchi-talaba shaxsidagi kognitiv xususiyatlarni quyidagi mezonlarda ko'ramiz.

- 1) *o'quv materialini faol qabul qilish;*
- 2) *o'quv materialini o'zlashtirish usullarini egallash;*
- 3) *ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'z oldiga topshiriq va vazifalar belgilash;*
- 4) *o'z-o'zini nazorat qilish va baholash.*

4.2. Nazariy dars mashg'ulotining ta'lim modeli va texnologik xaritasi

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning ta'lim modeli jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- dastlabki ma'lumotlar: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- shakl (ma'ruza, seminar va boshqalar) va ko'rinishi (masalan, muammoli ma'ruza va boshqalar), o'quv mashg'uloti rejasi, tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: usullar, shakllar va o'qitish vositalari;
- ta'lim berish sharoiti: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- monitoring va baholashga asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshqalar).

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari:

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1-1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

1-bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshqalar.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash me'zonlari bilan tanishtiradi.

Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2-bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy ma'lumot beruvchilik.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalarga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3-bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy – natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylariga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashni yakunini chiqaradi: o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

4.3. Nazariy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

Mavzu: Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari

Ta'lim berish texnologiyasi modeli (nazariy)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 25 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Nazariy
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Maxsulotlar tannarxining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari. 2. Fermer xo'jaligining tabiiy iqtisodiy tavsifnomasi, er fondi va ixtisoslashuvi 3. Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari va dinamikasi 4. Fermer xo'jaligida maxsulot tannarxining taxlili 5. Maxsulot tannarxini kamaytirish hisobiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish yo'llari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Fermer xo'jaligining tabiiy iqtisodiy tavsifnomasi, er fondi va ixtisoslashuvi to'g'risida modul topshiriqlar berish Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari va dinamikasi va rivojlantirish xususiyatlarini bayon qiladi Fermer xo'jaligida maxsulot tannarxining taxlili bo'yicha o'quvchilar bilimlarini shakllantirish Maxsulot tannarxini kamaytirish hisobiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish yo'llari tushuntiradi	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> Fermer xo'jaligining tabiiy iqtisodiy tavsifnomasi, er fondi va ixtisoslashuvi to'g'risida modul topshiriqlarni bajaradilar; Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari va dinamikasi va rivojlantirish xususiyatlarini qayd qiladilar Fermer xo'jaligida maxsulot tannarxining taxlili bo'yicha o'quvchilar mustaqil modulli topshiriqlar bajaradilar Maxsulot tannarxini kamaytirish hisobiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish yo'llari bo'yicha tayanch tushunchalarni qayd etadilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Nazariy, ko'rgazmali va boshqalar
<i>Ta'lim shakli</i>	Jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	O'quv-uslubiy majmua, modulli topshiriqlar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
I-bosqich. Kirish (10 daq.)	1.1. O'quvchilar e'tiboriga mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natija-larni etkazadi. O'quvchilarni mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar, mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati beriladi. 1.3. Nazariy dars mashg'uloti uchun belgilangan baholash mezonlari bilan tanishtiradi va o'quvchilarni faol-likka chaqiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Yozib oladilar
I I-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jara-yonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi. 2.3. Ma'ruza bo'yicha zaruriy iboralar, chizmalar, sxema va jadvallar tarqat-mali material ko'rinishida taqdim etadi. 2.4. Ma'ruza materiali rejaga muvofiq o'tilganidan so'ng xulosalanib, talabalar faolligida mustahkam-lanadi.	Javob beradilar Yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar Savol-javoblarda ishtirok etadilar
I I I- bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

4.3. Nazariy dars o'tish metodikasi

Mavzu: Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari

Darsning turi: Nazariy mashg'ulot.

Dars uchun ajratilgan vaqt 2 soat

Dars o'tish joyi: «Traktor va avtomobillar remonti» fani xonasi

O'qitish uslubi: modulli o'qitish.

Darsning jihozlanishi. Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari keltirilgan o'quv uslubiy majmualar, kichik modullarga bo'lingan o'quv materiallari, tarqatma materiallar, elektron darslik, kompyuter va videoproektor va boshqa didaktik materiallar.

Darsning maqsadi

Asosiy maqsadi: Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari bo'yicha o'quvchilarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi modulli topshiriqlar berish orqali ularda zaruriy bilimlarni hosil qilish. Bu ularga bilimlarni qabul qilishning nisbiy nafaol fazasidan faol fazasiga o'tish uchun imkon yaratadi.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, zarurati va o'rnini tushuntirish, ularni o'z kasbiga bo'lgan ishonchini hamda ijobiy fazilatlarini shakllantirib borish.

Shakllantiruvchi maqsad: O'quvchilarni Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llarini mustaqil o'rganishga tayyorlash bilan ularda iqtisodiy tafakkurni shakllantirib borish.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

O'quv auditoriyasiga o'qituvchi kirganidan so'ng o'quvchilar bilan salomlashadi, o'quvchilar davomatini aniqlaydi va dars xonasini mashg'ulot o'tishga tayyorgarligini ko'zdan kechiradi.

II. Modulli o'qitishda o'tilgan oldingi darsni o'quvchilardan so'rash

1. Oldin o'tilgan, o'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash va mustahkamlash uchun topshiriqlar berish. O'quvchi-talabalarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Bu ularga bilimlarni qabul qilishning nisbiy nafaol fazasidan faol fazasiga o'tish uchun imkon yaratadi.

2. Modul metodida o'quvchilar bilimni baholash

Modul texnologiyasi asosida o'qitishda o'quvchi-talabalar bilimi va ko'nikmalari o'quv maqsadlariga muvofiq holda muntazam baholanishi kerak. Baholash huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga hamda Davlat ta'lim standartiga asoslanadi. Baholash orqali butun modulni o'rganish jarayoni va uning barcha komponentlari maqbulligi tekshirilib ko'riladi. Bu bilan modulli o'qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Ma'ruza darsida o'tilgan mavzuni o'quvchilardan so'rash muhim ahamiyatga ega. Mavzuni mustahkamlashda o'tilgan mavzu qisqa, ravshan va aniq faktlarga tayanib so'rash lozim. Berilgan savollarga javob bergan o'quvchilarni baholashda ularni ayrim jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Bu jihatlariga o'quvchilarning bergan javoblarining to'g'riligi, o'zini tuta bilishi, tushuntirishdagi nutqiga, qiziqishiga, hatti-harakati va fanga bo'lgan munosabatlari kiradi. O'quvchilarni baholashda imkon qadar yuqori ball qo'yish maqsadga molik. Bu o'quvchining shu fanga bo'lgan qiziqishini, hurmatini oshiradi va ko'proq o'z ustida ishlashiga olib keladi.

O'tilgan mavzu o'quvchilardan so'ralganda ijobiy tushuntirilmagan mavzuning asosiy bandlarini o'qituvchi takrorlaydi, yaxshi tushuntirilmagan qismlar va muammolar tushuntiriladi va yangi mavzuga bog'lanadi.

III. O'tilgan mavzuni yangi mavzu bilan bog'lash

Yangi mavzuni bayon etishdan oldin o'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlab, uni yangi mavzuga bog'laydi. Bu holda o'quvchilar yangi mavzuni tez va oson tushunishlari uchun zamin yaratiladi.

IV. Modulli o'qitishda yangi mavzuni bayon etish tartibi

Mavzuni modul texnologiyasi asosida o'qitishda nazariy mashg'ulotlarni qiziqarli, hatto darsga taalluqli bo'lmagan ma'lumot bilan boshlash mumkin. Masalan, mavzu bilan bog'liq qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi. Bu o'quvchilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning shu sohaga yoki keyingi darslarda o'rganiladigan mavzuga qiziqishiga yordam beradi.

Ma'lumot berish. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga kasbiy sohasi bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar, o'quv suhbatlari uyushtiradi, o'yin-mashg'ulotlar o'tkazadi. Yangi modul birligini o'rganishdan avval o'tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan holda takrorlanadi.

O'quvchi-talabalarga modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Bu o'quv jarayonini osonlashtiradi. Ularni modul birligiga monand ravishda birin-ketin tarqatish va ko'rib chiqish uchun etarli vaqt ajratish, o'quvchi-talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ma'lumotlarni ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq.

V. Nazariy dars mashg'ulotlarida modulli o'qitish metodidan foydalanish

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi.

Qiziqtirish (motivasiya uyg'otish). Mavzuni modul texnologiyasi asosida o'qitishda nazariy mashg'ulotlarni qiziqarli, hatto darsga taalluqli bo'lmagan ma'lumot bilan boshlash mumkin. Masalan, mavzu bilan bog'liq qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi. Bu o'quvchilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning shu sohaga yoki keyingi darslarda o'rganiladigan mavzuga qiziqishiga yordam beradi.

Ma'lumot (bilim) berish. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga kasbiy sohasi bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar, o'quv suhbatlari uyushtiradi, o'yin-mashg'ulotlar o'tkazadi. Yangi modul birligini o'rganishdan avval o'tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan holda takrorlanadi.

O'quvchi-talabalarga modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Bu o'quv jarayonini osonlashtiradi. Ularni modul birligiga monand ravishda birin-ketin tarqatish va ko'rib chiqish uchun etarli vaqt ajratish, o'quvchi-talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ma'lumotlarni ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq.

O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash va mustahkamlash uchun topshiriqlar berish. O'quvchi-talabalarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Bu ularga bilimlarni qabul qilishning nisbiy nafaol fazasidan faol fazasiga o'tish uchun imkon yaratadi. O'quvchi-talabalarni guruhlarda hamkorlikda ishlash, mustaqil ravishda topshiriqlar bajarish, erishgan natijalarini taqdim etishga o'rgatish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

Tahlil va sintezlar. Modul birliklari tahlil qilish va sintezlash orqali o'zlashtiriladi. Nazariy bilimlarning amaliy ahamiyati ochib beriladi. O'zlashtirilgan bilimlar fanning boshqa sohalariga oid ma'lumotlar bilan sintezlanadi va amalda qo'llanadi.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin o'quvchi-talabalar o'zlari bajargan ishlarni baholashi lozim.

Natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilish ham o'ta samaralidir.

Modulni o'rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu – o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyati natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari yuzasidan mulohaza yuritish uchun yaxshi imkoniyat.

Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o'qitishda ko'pincha bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

Bevosita boshqariladigan ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Shuningdek, mashg'ulotlarni savol-javoblar, o'quv suhbatlari, muammoni muhokama qilish asosida tashkil etish ham yaxshi natijalar beradi.

VI. O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash va mustahkamlash uchun topshiriqlar berish

O'quvchi-talabalarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Bu ularga bilimlarni qabul qilishning nisbiy nafaol fazasidan faol fazasiga o'tish uchun imkon yaratadi. O'quvchi-talabalarni guruhlarda hamkorlikda ishlash, mustaqil ravishda topshiriqlar bajarish, erishgan natijalarini taqdim etishga o'rgatish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

1. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berish;

2. Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin o'quvchi-talabalar o'zlari bajargan ishlarni baholashi lozim.

3. Modulni o'rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilish.

Bu – o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyati natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari yuzasidan mulohaza yuritish uchun yaxshi imkoniyat beradi.

4. O'quvchilarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlar kichik mudullar sifatida jadval ko'rinishida taqdim etiladi. Topshiriqlar, topqirlik, izlanuvchanlik, tejamkorlik xis-latlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bular test, yozma ish (kichik mudullarda 1-km, 2-km va hokazo), og'zaki bayon yoki krossvord ko'rinishida bo'lishi mumkin.

5. AMALIY MASHG'ULOTNI O'TKAZISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

5.1. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari

Fanlardan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlariga atroflicha tayyorgarlik ko'rilishi va o'tkazilishi lozim. Ba'zi hollarda amaliy mashg'uloti nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Amaliy mashg'uloti o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib, bu bevosita va bilvosita boshqariladigan mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz.

Amaliy mashg'ulot xonalari o'quv faniga moslab jihozlangan va fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar, ta'limning zamonaviy texnik vositalari, xona derazalarini qorong'ilatish moslamalari va jihozlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Xonani jihozlashda axloq – aqidalarga ham e'tibor beriladi.

Bevosita boshqariladigan amaliy mashg'ulotida ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Bularga sxemalar, video tasvirlar va jihozlarning asl nusxalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini o'quvchilar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muammoni muxokama qilish tarzida olib borilsa, yaxshi samara beradi.

Bilvosita boshqariladigan amaliy mashg'uloti asosan o'quvchilarga yo'naltirilgan bo'lib, ular tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli kitoblarni o'qish mustaqil o'rganish orqali mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, o'quvchining o'zi mustaqil o'rganishiga turtki berish, bilimlarni o'zlashtirishga turtki berish kabilar kiradi.

An'anaviy tarzda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda 4...5 o'quvchi tayyorlanib kelgan materialini o'qib eshittirish yoki gapirib berishi orqali ular tinglanib baholanadi. Qolgan o'quvchilar faqat tinglaydi, boshqacha qilib aytganda ular mashg'ulotda passiv ishtirokchi sifatida mashg'ulotda fikr bildirmaydi. Bu esa o'quvchining kelgusidagi dars mashg'ulotiga tayyorlanishida salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Amaliy mashg'ulotda doskaga chiqqan o'quvchi esa kelgusi darsdagi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rmaydi. Chunki bu darsda oldingi darsda baholanmagan o'quvchilardan so'ralishi hammaga ma'lum. Bu kabi tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning amaliy mashg'ulotdagi tayyorgarligini bugungi kun talabi darajasida deb bo'lmaydi. Bu kabi salbiy holatlarni olidini olishda amaliy mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda olib borilishi maqsadga molik. Men amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda «Munozara» metodini qo'llashni taklif etayapman. Bunda o'quv auditoriyasidagi partalar davra suhbatini ko'rinishida, ya'ni doira shaklida qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar bir-biriga yuzma-yuz o'ttiradilar. Amaliy mashg'ulotdagi barcha topshiriqlar ularga oldingi darsda tarqatma material ko'rinishida tarqatiladi. Topshiriqni bajarib kelgan o'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Topshiriq sifatida berilgan muammo echimlarini aniqlashda o'qituvchi o'quvchilar-ning faolligini oshirishga qaratilgan hatti-harakatni bajaradi, ya'ni u barcha o'quvchilarni berilgan topshiriq echimini hal etishdagi fikrlarini eshitishga va ularni baholashga harakat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar berilgan topshiriqlarni ma'lum bir bosqichda mustaqil bajarishlari uchun mashg'ulot modeli va texnologik kartalari tuziladi (5.1-jadval).

5.2. Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

Mavzu: Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari Ta'lim berish texnologiyasi modeli (amaliy)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 25 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Amaliy
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Maxsulotlar tannarxining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari. 2. Fermer xo'jaligining tabiiy iqtisodiy tavsifnomasi, er fondi va ixtisoslashuvi 3. Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari va dinamikasi 4. Fermer xo'jaligida maxsulot tannarxining taxlili 5. Maxsulot tannarxini kamaytirish hisobiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish yo'llari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Fermer xo'jaligining tabiiy iqtisodiy tavsifnomasi, er fondi va ixtisoslashuvi to'g'risida modulli topshiriqlar beradi Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari va dinamikasi va rivojlantirish xususiyatlarini bayon qiluvchi topshiriqlar beradi Fermer xo'jaligida maxsulot tannarxining taxlili bo'yicha o'quvchilar bilimlarini shakllantirish uchun muammoli savollar beradi Maxsulot tannarxini kamaytirish hisobiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan oqilona foydalanish yo'llari bo'yicha topshiriqlar beradi	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> Fermer xo'jaligining tabiiy iqtisodiy tavsifnomasi, er fondi va ixtisoslashuvi to'g'risida modul topshiriqlarni bajaradilar; Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari va dinamikasi va rivojlantirish xususiyatlarini topshiriqlarni bajarish orqali bayon qiladilar; Fermer xo'jaligida maxsulot tannarxining taxlili bo'yicha o'quvchilar mustaqil modulli topshiriqlardagi muammo echimini topadilar Maxsulot tannarxini kamaytirish hisobiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish yo'llari bo'yicha topshiriqni bajaradilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Modulli va muammoli
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, videoproektor va didaktik materiallar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar. Yozma so'rov: referat, test va boshqalar.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
I-bosqich. Kirish (10 daq.)	1.4. Amaliy mashg'ulot topshiriqlari va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.5. Berilgan modulli topshiriq-larni mustaqil bajarish bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.6. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
I I-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.	Javob beradilar Yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va boshqalar
I I I-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Amaliy mashg'ulot yakunida, bajarilgan modulli topshiriqlar tahlil qilinadi, kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

5.3. Amaliy mashg'ulotini o'tkazish metodikasi

Mavzu: Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari

Amaliy mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad: Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari bo'yicha o'quvchilarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi modulli topshiriqlar berish orqali ularda zaruriy bilimlarni hosil qilish. Bu ularga bilimlarni qabul qilishning nisbiy nafaol fazasidan faol fazasiga o'tish uchun imkon yaratadi.

Mashg'ulot o'tkazish joyi: ta'limning texnik vositalari bilan jihozlangan fan xonasi.

Mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, zarurati va o'rnini tushuntirish, ularni o'z kasbiga bo'lgan ishonchini hamda ijobiy fazilatlarini shakllantirib borish.

Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt: 4 soat.

Mashg'ulotning didaktik va moddiy ta'minoti: amaliy mashg'ulot mavzusining elektron talqini, mashg'ulot materialiga doir taqdimot slaydalari, kichik modullarga bo'lingan o'quv materiallari, ko'rgazmali qurollar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, tarqatma materiallar, kompyuter va proyektor, mavzu yuzasidan foydalanish uchun adabiyotlar, kitob javonlari, internet va axborot resurslari markazi elektron kutubxonasi tarmog'iga ulangan kompyuterlar va boshqa didaktik materiallar.

I. Tashkiliy qism

O'quvchilar bilan salomlashish, ularning mashg'ulotga tayyorgarligini, xonaning mavzuga doir moddiy ta'minotini ko'zdan kechirish, o'quvchilar davomatini aniqlash va qayd etish.

II. O'quvchilarni amaliy mashg'ulot nomi va maqsadi bilan tanishtirish (tayyorlov bosqichi)

1. O'quvchilarga amaliy mashg'ulotning mavzu va maqsadi tushuntiriladi. Ularga 4 soatlik amaliy mashg'ulot davomida "Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari" mavzusini o'rganishda «Kichik guruhlarda ishlash» metodidan foylanish tartiblari tushuntiriladi.

2. O'quvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish. Investisiyalarni jalb etish va uning samaradorligi bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida ularga quyidagi savollarni berishi mumkin:

3. Mashg'ulot topshirig'ini bajarish tartibi. Amaliy mashg'ulot topshirig'i tarqatma materiallarda bayon etilib ularga tarqatilgan va unda qo'yilgan muammo

echimini aniqlashda zaruriy manbalar keltirilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarga mashg'ulot topshirig'ini bajarishda zaruriy manbalardan foydalanish yo'llari va topshiriqlarni bajarish ketma-ketligi tushuntiriladi.

4. O'quvchilarga amaliy mashg'ulot topshirig'ini ma'lum bir ketma-ketlikda bajarishlari uchun instruksion-texnologik kartalar beriladi. Unda ish bosqichlari va mazmuni, topshiriqlarni bajarishdagi o'quvchi va o'qituvchi faoliyatlari keltirilgan bo'ladi.

III. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini o'quvchilarning mustaqil bajarishlari (amalga oshirish)

1. O'qituvchi o'quvchilarga amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish bo'yicha zaruriy ma'lumotlar beriladi. Bunda o'qituvchi berilgan topshiriqlar bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. «Kichik guruhda ishlash» usuli maqsadni amalga oshirish vositasi ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon etish orqali muammo echimini izlash to'g'risida buyruq beriladi. O'qituvchi mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undaydi, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishishi lozim.

2. Tarqatma materiallarda berilgan muammo echish yo'llarini jamoaviy muhokamada izlanadi, echimlar e'tirozsiz qayd etiladi. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi – yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

Bu tarzda bildirilgan fikr va g'oyalar kichik guruh va jamoada tahlil etiladi va aniqlangan echimlarning maqsadga mosligi asoslanadi.

IV. O'quvchilar tomonidan bildiriladigan fikr va g'oyalarni tinglash (g'oyalarni kiritish)

1. Mashg'ulotda ma'qul deb topilgan fikr va g'oyalar «Kichik guruhda ishlash» metodida bayon etiladi. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

2. Bunda o'qituvchi g'oyalarni magnitofon yoki videolentaga, qog'oz varag'iga yoki doskaga yozib olishni tashkil qiladi.

3. Yangi g'oyalarni bildirish davom etar ekan, muammoning yagona to'g'ri echimini e'lon qilishga shoshilmaslik lozim.

4. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash hamda bildirilgan fikrlar ustidan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

5. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va g'oyalarni baholanishiga yo'l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya) lari baholanib boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar.

Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

V. Guruh jamoasi bildirgan fikr va g'oyalarni tahlil etish

1. O'qituvchi taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oya-larni tahlil qilishni tashkil qiladi. Bunda o'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qiladi. Muammo echimini yagona to'g'ri javobi e'lon qilinadi, uni maqsadga mosligi asoslanadi hamda to'g'ri javob muallifi rag'batlantiriladi.

V. Yakun yasash va baholash

O'qituvchi o'quvchilar faoliyatiga yakun yasaydi, tahlil qiladi va o'quvchilarni baholaydi hamda baholar e'lon qilinadi.

Xulosa va takliflar

Bitiruv malakaviy ishida «Ishlab chiqarish xarajatlari va uni pasaytirish yo'llari» mavzusini interaktiv metodlari asosida o'qitish metodikasi ishlab chiqildi. Kasb-hunar ta'limi jarayoda dars mashg'ulotlarini pedagogik texnologiyalarning interaktiv metodlari asosida tashkil etishga va auditoriyalardagi o'quvchilarning mavzuni puxta o'zlashtirishlarini sezilarli darajada oshirishga qaratildi.

1. Pedagogik texnologiyaning ta'lim metodlarini tanlashda asosan ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlari va o'qituvchining mahoratlarini inobatga olish muhim, bu - tahsil oluvchilarda muayyan fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatlarini shakllantirishini ta'minlaydi.

2. Ta'limning interaktiv metodlari asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqati barqarorlashadi va o'tilayotgan material tushunarli bo'lib, darsda o'quvchilarning materialni idrok qilishdagi vaqtlarini sezilarli darajada qisqartiradi.

3. Dars jarayonlarida qo'llaniladigan ta'limning interaktiv metodlari dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish orqali berilayotgan o'quv materialini o'quvchilarning puxta uzlashtirishiga yordam beradi, ularning fikrlash faoliyatini o'stiradi, har narsani bilishga ishtiyoq uyg'otadi. Fahm – farosatli, mustaqil ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga zamin yaratadi.

4. Kollej ta'lim jarayonida ta'limning interaktiv metodlari qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu ukuvchilarning mustaqil qo'yilgan muammo echimini topish malakalarini shakllantirib, fikr bildirish, o'zgalar fikriga tanqidiy yondoshish va ijodkorlik tafakkurlarini o'stiradi.

5. Ushbu bitiruv malakaviy ishida Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi Jobborova Tozagul fermer xo'jaligining 2007-2009 yillardagi malumotlari tahlil tahlil qilindi. Malumotlarning asosiy ko'rsatkichlari dehqonchilik maxsulotlari tannarxini samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlardir.

6. Kasbi tumani Jobborova Tozagul fermer xo'jaligida O'zbekiston Respublikasining keyingi yillarda chiqarilgan qishloq xo'jaligini isloh qilish to'g'risidagi qonunlari bajarilib kelinmoqda. Xo'jalikning ixtisoslashuvi asosan paxtachilik va donchilik bo'lib, shu bilan bir qatorda , bog'dorchilik, sabzavotchilik va boshqa sohalari xam rivojlanmoqda.

7. Kasbi tumani Jobborova Tozagul fermer xo'jaligining 2009 yilda 50 gektar maydonga paxta ekini ekilgan, paxtaning o'rtacha hosildorligi 26 s/gani tashkil etgan. Fermer xo'jaligida paxtadan olingan daromad 70070000 sumni tashkil etgan. Fermer xo'jaligida paxtaga qilingan xarajat 53253000 sumni tashkil etgan. Paxtachilikdan olingan sof foyda 16817000 sumni tashkil etgan. Paxtachilik bo'yicha fermer xo'jaligida rentabellik darajasi 31.5 % ni tashkil etadi. 2009 yilda 36 gektar maydonga don ekini ekilgan, donning o'rtacha hosildorligi 26 s/gani tashkil etgan. Fermer xo'jaligida dondan olingan daromad 19375200 sumni tashkil etgan. Fermer xo'jaligida donga qilingan xarajat 14531000 sumni tashkil etgan. Donchilikdan olingan sof foyda 48844200 sumni tashkil etgan. Donchilik bo'yicha fermer

xo'jaligida rentabellik darajasi 33 % ni tashkil etadi. Fermer xo'jaligi bo'yicha rentabellik darajasi 35 %ni tashkil etadi.

8. Fermer xo'jaligining malumotlari taxlil qilinishi natijasida bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlarning past darajada ekanligi malum bo'ldi. Fermer xo'jaligida paxta etishtirishning samaradorligini oshirish, iqtisodiy foyda olishga erishish uchun barcha chora tadbirlardan foydalanish zarur. Chunki xo'jalikda paxta etishtirish uchun sarflangan mehnat sarfini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, fondlardan foydalanishsamaradorligini oshirish va ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish lozim. Shu maqsadda erishilgan barcha muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun yangi imkoniyatlarni topish kerak.

Mavjud kamchiliklarni yo'qotish va paxta etishtirishning samaradorligini oshirish xamda fermer xo'jaligining istiqboldagi ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilash quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- erlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali foydalanish. Bu, o'z navbatida, hosildorlikning o'sishiga olib keladi;
- almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish, talab va imkoniyatdan kelib chiqqan holda ekin turlarini joylashtirishni rasional tashkil etish;
- urug'chilikni yaxshilash, seleksiya ishlarni jonlantirish;
- mineral va organik o'g'itlardan foydalanishni ilmiy asosga qo'yish, barcha kimyoviy vositalardan samarali foydalanish;
- ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish.

Ushbu omillarning barchasiga katta e'tibor berish zarurati mavjud. Albatta, bu masalalarni to'g'ri hal etish ishchi xodimlarning nafaqat manfaatdorligiga, balki bilim va tajribalariga ham bog'liq. Shu sababli fermer xo'jaligida mehnat qilayotganlarning bilim va tajribasini tinmasdan oshirib borishni ta'minlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi // Xalq so'zi, 2014 yil 18 yanvar
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston traqqiyotining poydevori. Toshkent, Sharq, 1998 y.
3. Karimov I.A. Jahon moliviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari –T., O'zbekiston , 2009.
4. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish. – T.: «O'zbekiston», 1995.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002 yil 28 avgustdagi Farmoni, Xalq so'zi, 2002 yil 30 avgust
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 2003 yil 28 oktyabr
I. Minakov, «Ekonomika selskoxozyaystvennogo predpriyatiya», Uchebnik, M.: Kolos, 2004.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998yil 5-yanvardagi «Uzluksiz talim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 5-sonli Qarori.
8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari kasb va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi-T. : 2002, 2004.
9. A.I. Ikromov. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari mavzusidagi seminar trening materiallari. Toshkent, 2002 y.
10. R. Mavlonova va boshqalar. Pedagogika. Toshkent, O'qituvchi, 2001 y.
11. N. G'aybullaev va boshqalar. Pedagogika (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2000 y.
12. O'.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, «Fan», 2005 y.
13. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000 y.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 yil 13 maydagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 204-sonli Qarori.
15. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. Xalq ta'limi jurnali. 1999 y., №5
16. A.X. Abdullaev, Z.Dehkambaeva «O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi tarmoq ta'lim standartlarini ekspert baholash» uslubiy qo'llanma. –T: 2001 y.
17. S.R.Shoyqulov va boshqalar. «Hisoblash texnikasi va ta'limning texnik vositalari». Toshkent. «O'qituvchi», 1995 y.
18. Xo'jaev N. Xasanov J. Iqtisodiy pedagogika. Toshkent, 2002.
19. G'ulomov S. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. Toshkent, Mehnat, 1997.
20. R.Hakimov va boshq., «Agrosanoat majmui iqtisodi», T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004
21. B.Xodiev va boshq., «Kichik tadbirkorlikda marketing», T.:Konsauditinformnashr, 2004
22. Internet saytlari:
23. Попов Н.А. Экономика отраслей АПК. Курс лекции, 2002, <http://family.taukita.ru/Fitem22219310.htm>
24. Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства, М. «Юркнига». 2004 Королев Ю.Б. и др. Менеджмент в АПК, 2002, учебник,